

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI ASOSIY TADBIRLAR REJASINING 2017
YIL I YARMIDA BAJARILISHI HOLATI VA II YARIM YILLIGIGA USTUVOR
VAZIFALARI BO‘YICHA

H I S O B O T I

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 2016 yil 30 dekabrda “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha 2016 yilda bajarilgan tadbirlar yakuni va 2017 yildagi vazifalar to‘g‘risida”gi 5-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi:

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevraldagi “Toshqin, sel, qor ko‘chishlari va ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-585-son Qarori talablarini bajarish maqsadida Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari balansidagi daryo va soylarning qirg‘oqlarini mustahkamlash va o‘zanlarini tozalash bo‘yicha muhandislik-texnik va himoya ishlari uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga jami
2102,5 ming m³ tuproq, **37,8** ming m³ tosh, **377,6** ming m³ beton va **11,2** tn. temir-beton ishlari bajarildi.

Sel va suv toshqinlari xavfi mavjud uchastkalarda o‘tkazilgan **134** ta taktik-maxsus o‘quv mashqlarida **10458** ta shaxsiy tarkib, **1274** ta muhandislik texnikalari jalb etilib, **126385** m³ tuproq, **37166** m³ tosh-shag‘al, **3373,17** m³ beton, **89795** p/m o‘zan tozalash ishlari amalga oshirildi.

“O‘zgidromet” xizmati va Davlat geologiya qo‘mitasining Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish Davlat xizmati ma‘lumotiga asosan, respublikaning gidrometeorologik va geologik xavfli hududlarida joylashgan **139** ta xo‘jalikda **630** nafar fuqaro yashayotganligi aniqlanib, xavfli hududlardagi **71** ta xo‘jalikda yashovchi **367** nafar fuqaro (Surxondaryo viloyatida - 39 ta xo‘jalik 199 nafar fuqaro, Samarqand viloyatida - 11 ta xo‘jalik 78 nafar fuqaro, Toshkent viloyatida - 18 ta xo‘jalik 79 nafar fuqaro va Namangan viloyatida - 3 ta xo‘jalik 11 nafar fuqaro) vaqtincha yashash uchun xavfsiz hududlarga ko‘chirilgan, **106** ta xo‘jalikdagi **443** nafar fuqaro (Surxondaryo viloyatida - 99 ta xo‘jalik 405 nafar fuqaroga, Qashqadaryo viloyatida - 5 ta xo‘jalik 26 nafar fuqaroga, Samarqand viloyatida 2 ta xo‘jalik 12 nafar fuqaroga)ni muhofaza qilish maqsadida qirg‘oq mustahkamlash yoki xavfsiz hududdan uy-joy qurish uchun yer maydoni ajratish orqali xavf bartaraf etilgan.

Xavfli hududdan vaqtinchalik ko‘chirilgan aholini doimiy yashash joylariga o‘zboshimchalik bilan qaytishi holatlarining oldini olish va maqsadida **142 ta** (*shundan, 80 ta ichki ishlar idoralari xodimlaridan, 62 ta esa jamoatchilik vakillaridan*) post tashkil qilinib, postlar 700 daqiqa imtiyozga ega tarif rejaları telefon aloqasi bilan ta‘minlangan.

Respublika hududidagi **62 ta** hayotiy zarur ob‘ektlarning (Toshkent viloyati 8 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida

7 tadan, Samarqand, Jizzax viloyatlarida 6 tadan Buxoro, Namangan, Farg‘ona Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahrida 4 tadan, Navoiy viloyatida 1 ta). favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlik holati o‘rganib chiqilib, **35 ta** korxonalar va tashkilotlar (Surxondaryo viloyati 6 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyati 5 tadan, Toshkent shahri 4 ta, Buxoro, Xorazm va Jizzax viloyatlarida 3 tadan, Navoiy viloyatida 2 ta, Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida 1 tadan) maxsus-taktik o‘quv mashqlari o‘tkazildi.

Aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash bo‘limi bo‘yicha:

Fuqaro muhofazasi institutining 2017 yil asosiy tadbirlar rejasiga asosan, olti oyi davomida **987** nafar tinglovchilar o‘qitilishi rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **847** nafar tinlovchilar o‘qitilgan.

Fuqaro muhofazasi instituti xodimlari tomonidan joriy yilning birinchi yarmida joyiga chiqqan holda **98** marta suhbatlar o‘tkazildi va tadbirlarda **4075** nafar ishtirokchi qatnashdi.

Hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari Aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarining asosiy faoliyati yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etilmagan aholini, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlar tarkibini, fuqaro muhofazasi sohasi mutaxassislari hamda tuzilmalar shaxsiy tarkibini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlashga qaratildi.

Aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlari tomonidan 2017 yil yanvar-iyun oylarida reja bo‘yicha **15193** nafar, amalda **15937** nafar xodimlar belgilangan dasturlar asosida joylarda tayyorgarlikdan o‘tkazilib, reja **105** % ga bajarildi.

Shular bilan birga, aholi va rahbar xodimlarni favqulodda vaziyatlarga harakat qilishga tayyorlash tadbirlarini ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib etish maqsadida televideniye orqali **1227** marta teleko‘rsatuvlar, radio orqali **849** marta efirga chiqishlar, mahalliy va respublika gazeta va jurnallarida **506 ta** turli mavzulardagi maqolalar chop etilgan.

Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish mavzularida **152 ta** o‘quv va uslubiy qo‘llanmalari hamda eslatmalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Qayta tayyorlangan hujjatlar nusxalari ko‘paytirilib, korxonalar, tashkilotlar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda aholiga tarqatilgan.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etilmagan aholi o‘rtasida **3744** marta tushuntirish ishlari va suhbatlar o‘tkazilib, ularda jami **229.201 nafar** aholi ishtirok etgan;

Potensial xavfli ob‘ektlar atrofida suhbatlar bo‘yicha:

Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlarda yashovchi aholining xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek aholini muhofaza qoidalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida hisobot davrida respublika hududida joylashgan potensial xavfli ob‘ektlar atrofida istiqomat qiluvchi aholini favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyorlash bo‘yicha hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari tomonidan joylarda reja bo‘yicha **209**

marta, amalda **197** marta suhbatlar o'tkazilib, tadbirlarda **10476** nafar aholi ishtirok etgan.

2017 yil 1-yarmida hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining Avariya-qutqaruv otryadlari tomonidan aholiga yordam ko'rsatish bo'yicha jami **2436 ta** chiqishlar amalga oshirildi. Chiqishlar davomida asosiy e'tibor ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlashga (28%) favqulodda vaziyatlar (12%) va favqulodda hodisalarni (22%) bartaraf etishga, aholiga yordam ko'rsatish (16%), o'quv mashqlarida FVDqT hamda ob'ekt tuzilmalari bilan hamkorlikda harakat qilish (22%) hamda qutqaruvchilarning amaliy mashg'ulotlarda bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'ztransgaz" AK, IIB YoXB, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar FVB RBB(b)MB bo'limlari boshchiligida is gazidan va botulizmdan zaharlanish, "Odamlar va xayvonlar o'rtasida quturish kasalligini tarqalishini oldini olish" "Respublika hududiga Krim-Kongo gemorragik isitma kasalligini chetdan kirib kelishi", "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'sirini kamaytirish", "Zararli chigirtkalarga hamda termit zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini samarali tashkil etish va amalga oshirish" mavzularida seminarlar o'tkazildi.

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari boshqaruv organlari, kuch va vositalarining tayyorgarligini oshirish maqsadida, respublika viloyatlarida hisobot davrida iqtisodiyot ob'ektlarida **224 ta** maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazildi. O'quv mashqlarida **17038 nafar** shaxsiy tarkib jalb qilinib, **1524 ta** muxandislik texnika jalb qilindi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar bilan birga joriy yilning 1-yarmida respublika hududida **76 ta** favqulodda vaziyat ro'y berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17%ga (65 ta)** ko'paygan.

Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarida jami **316 nafar** kishi jabrlanib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 martaga (121 nafar) ko'paygan, halok bo'lganlar esa **157 nafarni** tashkil etib, 2016 yilning ayni davriga nisbatan mos ravishda 58,5%ga (99 nafar) ko'paygan.

Favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishiga asosan iqtisodiyot ob'ektlaridagi texnologik asbob-uskunalarining eskirganligi, fuqarolarning avtomobil vositalarini boshqarishda, gaz uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmasliklari sabab bo'lmoqda.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi